



MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV VA KASBIY-EKSTREMAL KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Mumindjanova Nilufar Akramovna

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

mumindjanovanilufarxon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish hamda kasbiy faoliyatga moslashuvchanligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda o'z-o'zini baholash, refleksiv tahlil va mustaqil o'quv faoliyatining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishda muammoli ta'lim (PBL), keys-stadi, simulyatsion ta'lim, elektron portfolio va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada o'quvchilarning murakkab kasbiy vaziyatlarda moslashuvchanligi, stressga chidamliligi va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metodik yondashuvlar tavsiya etilgan.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, refleksiya, refleksiv ko'nikma, kasbiy-ekstremal kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim, keys-stadi, simulyatsion ta'lim, elektron portfolio, raqamli texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, o'z-o'zini rivojlantirish.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini shakllantirish, balki ularning mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda kasbiy faoliyatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim oluvchilardan o'z bilimlarini mustaqil egallash, yangi sharoitlarga tez moslashish, ekstremal va nostandart vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lish talab qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil ta'lim jarayoni o'quvchilarning refleksiv hamda kasbiy-ekstremal kompetensiyalarini takomillashtirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mustaqil ta'lim o'quvchining shaxsiy faolligiga asoslangan jarayon bo'lib, unda bilimlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, amaliyotda qo'llash va o'z faoliyat natijalarini baholash imkoniyatlari kengayadi. Ayniqsa, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar o'z bilim darajasini anglash, mavjud kamchiliklarni aniqlash, o'z-o'zini



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



nazorat qilish hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Refleksiya shaxsning intellektual va kasbiy o'sishida muhim omil bo'lib, ta'lim jarayonida ongli yondashuv, mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilish sifatlarini shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy kasbiy faoliyat sharoitida o'quvchilarning kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Kasbiy-ekstremal ko'nikmalar murakkab, kutilmagan va yuqori mas'uliyat talab qiladigan vaziyatlarda bilim, tajriba va psixologik barqarorlik asosida samarali harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda muammoli topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, vaziyatli tahlil, amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil izlanishga asoslangan pedagogik texnologiyalar alohida o'rin tutadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni integrativ rivojlantirish o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash hamda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur maqolada mustaqil ta'lim sharoitida o'quvchilarning refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, metodik yondashuvlari hamda samarali rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish maqsad qilib olingan. Zamonaviy pedagogika fanida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish hamda murakkab vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mustaqil ta'lim jarayoni o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar majmuasini shakllantiradi, balki ularning refleksiv tafakkuri, shaxsiy mas'uliyati, kasbiy moslashuvchanligi hamda ekstremal sharoitlarda qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim tushunchasining nazariy asoslari ko'plab pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, rus pedagog olimi S.I.Arhangelskiy mustaqil ta'limni o'quvchining bilim olish jarayonidagi faol pozitsiyasi, o'z faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik jarayon sifatida baholaydi. Uning fikricha, ta'lim oluvchi mustaqil faoliyat jarayonida tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanmay, balki yangi bilimlarni izlash, ularni tahlil qilish va amaliy vaziyatlarda qo'llash tajribasiga ega bo'ladi. P.I.Pidkasistiy tadqiqotlarida esa mustaqil ta'lim o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Olim mustaqil ishlarning samaradorligi o'quvchining ichki motivatsiyasi, mustaqil fikrlash darajasi va o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchi o'z faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo'lib, unda ijodkorlik va mas'uliyat hissi rivojlanadi.

Refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish masalasi psixologiya va pedagogika sohasida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Refleksiya tushunchasining ilmiy asoslari



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



J.Dyui, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn kabi olimlarning ishlarida chuqur yoritilgan. Xususan, amerikalik pedagog va faylasuf J.Dyui refleksiv fikrlashni insonning tajribani qayta anglash, mavjud muammoni tahlil qilish va yangi yechimlarni ishlab chiqish jarayoni sifatida izohlaydi. Uning fikricha, samarali ta'lim shaxsning o'z tajribasi ustida fikrlashi va undan kelajakdagi faoliyati uchun xulosa chiqarishi orqali amalga oshadi. L.S.Vigotskiy refleksiv jarayonlarni shaxsning ongli faoliyati va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'lab tahlil qilgan. Olimning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, insonning bilish jarayonlari ijtimoiy tajriba, muloqot va faoliyat davomida shakllanadi. Shu sababli mustaqil ta'lim jarayonida refleksiyani rivojlantirish o'quvchilarning o'z bilimlarini baholash, o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va kelgusidagi faoliyat strategiyasini belgilash imkoniyatini yaratadi. A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasida esa shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida ongli faoliyat ko'rsatiladi. Uning ta'kidlashicha, har qanday bilim va ko'nikma faoliyat jarayonida shakllanadi. Mustaqil ta'lim ham aynan faoliyatga asoslangan jarayon bo'lib, unda o'quvchi maqsad qo'yish, vazifalarni bajarish, natijalarni baholash hamda o'z imkoniyatlarini tahlil qilish orqali refleksiv tajribaga ega bo'ladi.

Kasbiy-ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi esa kasbiy pedagogika, ekstremal psixologiya va kompetensiyaviy yondashuv nazariyalari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda V.A.Bodrov, A.M.Stolyarenko, E.F.Zeyer, A.K.Markova kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. V.A.Bodrov kasbiy faoliyatda psixologik tayyorgarlik, stressga chidamlilik va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini mutaxassisning muhim kasbiy sifatlari sifatida izohlaydi. A.M.Stolyarenko ekstremal sharoitlarda inson faoliyatini tadqiq etib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariy bilim bilan bir qatorda psixologik barqarorlik, tezkor fikrlash, vaziyatni baholash va optimal qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, ekstremal vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish faqat bilim darajasiga emas, balki shaxsning irodaviy sifatlari va refleksiv boshqaruv imkoniyatlariga ham bog'liqdir.

E.F.Zeyer va A.K.Markova tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy rivojlanish konsepsiyalarida esa kompetent mutaxassisni tayyorlashda kasbiy o'zini anglash, faoliyat natijalarini baholash, kasbiy moslashuvchanlik va o'z ustida ishlash qobiliyatlari asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Bu jihatlar mustaqil ta'lim jarayonida refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni o'zaro integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, M.H.Usmonboyeva, D.Ro'ziyeva kabi tadqiqotchilar kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash, mustaqil ta'limni tashkil etish hamda kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalalarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida ta'lim oluvchini faol subyektga aylantirish, mustaqil izlanish faoliyatini kuchaytirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



zarurligi ta'kidlanadi. Demak, ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchining intellektual, psixologik hamda kasbiy shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatuvchi jarayondir. Ushbu ko'nikmalarni samarali takomillashtirish uchun ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, amaliy topshiriqlar berish, refleksiv tahlil metodlarini qo'llash va o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish faoliyatini rivojlantirish muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion metodikalardan kompleks foydalanishni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o'quvchini mustaqil izlanishga yo'naltirish, o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish va murakkab kasbiy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga tayyorlashdan iboratdir. Shu sababli mustaqil ta'limni tashkil etishda refleksiv yondashuv, muammoli ta'lim texnologiyalari, vaziyatli tahlil metodlari, simulyatsion mashg'ulotlar hamda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Amaliy jarayonda dastlab o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlash, ularning mustaqil faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash muhim hisoblanadi. Bunda refleksiv diagnostika metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "Refleksiv kundalik", "O'z-o'zini baholash xaritasi", "SWOT tahlil" kabi metodlar o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglashiga, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashiga yordam beradi. O'quvchi bajarilgan topshiriqlar natijasini mustaqil tahlil qilish orqali o'z faoliyatiga tanqidiy munosabat bildirish, muammolar sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish tajribasiga ega bo'ladi. O'quvchilarning refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasi (Problem Based Learning – PBL) muhim o'rin egallaydi. Ushbu metodika o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki muammoni mustaqil tahlil qiluvchi va yechim ishlab chiquvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarga kasbiy faoliyat bilan bog'liq murakkab vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlar berilishi ularning analitik tafakkuri, mas'uliyat hissi hamda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, vaqt cheklangan, axborot yetarli bo'lmagan yoki noodatiy sharoitlarda yechim topishga qaratilgan mashqlar kasbiy-ekstremal tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, keys-stadi texnologiyasi mustaqil ta'lim jarayonida samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar real hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarni tahlil qiladi, mavjud muammolarni aniqlaydi, turli yechim variantlarini ishlab chiqadi va eng maqbul qarorni tanlashga o'rganadi. Vaziyatli tahlil jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, muammoga tizimli yondashuvi, kommunikativ hamda kasbiy moslashuvchanlik



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



ko'nikmalari rivojlanadi. Bunda har bir bajarilgan topshiriqdan so'ng refleksiv tahlil amalga oshirilishi o'quvchilarga o'z qarorlarining samaradorligini baholash imkoniyatini yaratadi.

Kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni shakllantirishda simulyatsion va ssenariy asosidagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Simulyatsion metodlar yordamida o'quvchilar real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan sharoitlarda mustaqil harakat qilishga tayyorlanadi. Bunday mashg'ulotlarda "vaziyatni anglash – qaror qabul qilish – amaliy harakat – natijani tahlil qilish" modeli asosida faoliyat tashkil etiladi. Mazkur jarayon o'quvchilarda tezkor fikrlash, stress sharoitida o'zini boshqarish, mas'uliyatni his qilish va kutilmagan holatlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar ham refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni takomillashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Elektron portfolio, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari o'quvchilarning individual rivojlanish yo'nalishini belgilash imkonini beradi. Elektron portfolio orqali o'quvchi o'z faoliyati natijalarini jamlaydi, rivojlanish bosqichlarini kuzatadi hamda o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi. Bu esa refleksiv fikrlash madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishda refleksiv baholash texnologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur baholash shaklida faqat yakuniy natija emas, balki o'quvchining bilim olish jarayonidagi faolligi, mustaqil izlanishi, ijodiy yondashuvi va o'z ustida ishlash qobiliyatlari ham hisobga olinadi. Refleksiv baholash orqali o'quvchi o'zining rivojlanish darajasini anglaydi, kelgusidagi maqsadlarini belgilaydi va kasbiy o'sish jarayonini mustaqil boshqarishga o'rganadi. Shunday qilib, mustaqil ta'lim jarayonida refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarni rivojlantirishda PBL, case-study, simulyatsion mashg'ulotlar, elektron portfolio va refleksiv baholash metodlarining integratsiyalashgan holda qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu metodikalar o'quvchilarni zamonaviy kasbiy faoliyat talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan, o'z faoliyatini tahlil qila oladigan hamda murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qiluvchi raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilarning refleksiv va kasbiy-ekstremal ko'nikmalarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi tezkor o'zgaruvchan ijtimoiy va kasbiy muhitda o'quvchilarning faqat bilimga ega bo'lishi yetarli emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, o'z faoliyatini ongli baholashga, murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga ham tayyorlash zarur.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, refleksiv ko'nikmalar o'quvchilarda o'z bilim va imkoniyatlarini tahlil qilish, shaxsiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash hamda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Kasbiy-ekstremal ko'nikmalar esa kutilmagan vaziyatlarda tezkor fikrlash, mavjud sharoitni to'g'ri baholash, stressga



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



chidamlilik va optimal qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘un rivojlanishi o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy faoliyatga moslashuvchanligini oshiradi. Mustaqil ta‘lim jarayonida Problem Based Learning (PBL), case-study, simulyatsion ta‘lim, reflektiv kundalik, elektron portfolio hamda raqamli texnologiyalar asosidagi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirib, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu metodlar ta‘lim oluvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, muammoni tahlil qiladigan va innovatsion yechimlar ishlab chiqadigan faol subyekt sifatida shakllantiradi. Shuningdek, reflektiv va kasbiy-ekstremal ko‘nikmalarni rivojlantirishda ta‘lim jarayonining amaliy yo‘naltirilganligi, real kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar tizimini yaratish hamda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini muntazam tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ijodkorlik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va mas’uliyat kabi kasbiy muhim sifatlarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta‘lim jarayonida reflektiv va kasbiy-ekstremal ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish raqobatbardosh, zamonaviy kasbiy talablarga javob bera oladigan, murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga qodir shaxsni shakllantirishning muhim pedagogik omilidir. Shu bois ta‘lim jarayoniga innovatsion metodikalar, raqamli vositalar va reflektiv yondashuvlarni keng tatbiq etish o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini ta‘minlovchi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey J. **How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process.** – Boston: D.C. Heath and Company, 1933. – 301 p.
2. Выготский Л.С. **Мышление и речь.** – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Леонтьев А.Н. **Деятельность. Сознание. Личность.** – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
4. Рубинштейн С.Л. **Основы общей психологии.** – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.
5. Пидкасистый П.И. **Самостоятельная деятельность учащихся: дидактический анализ процесса и структуры воспроизведения и творчества.** – Москва: Педагогика, 1972. – 184 с.
6. Архангельский С.И. **Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы.** – Москва: Высшая школа, 1980. – 368 с.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



7. Бодров В.А. **Психология профессиональной пригодности.** – Москва: ПЕР СЭ, 2001. – 511 с.
8. Столяренко А.М. **Экстремальная психопедагогика.** – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 607 с.
9. Зеер Э.Ф. **Психология профессионального развития.** – Москва: Академия, 2009. – 240 с.
10. Маркова А.К. **Психология профессионализма.** – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с.
11. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. **Innovatsion ta'lim texnologiyalari.** – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.
12. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.** – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
13. Ro'ziyeva D.I., Usmonboyeva M.H., Holiqova Z. **Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi.** – Toshkent: TDPU, 2013. – 136 b.